



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

“BOBURNOMA” – QOMUSIY ASAR SIFATIDA

“BABURNAMA” – AS AN ENCYCLOPEDIA

Sharafiddinov Xursand

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farg‘ona davlat universiteti

E-mail: sharafutdinovxursand@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-7423-4955>

Sharafutdinova Nilufar Xursandovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi

E-mail: nilusharafutdinova1973@gmail.com +998903005358

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-5405-9550>

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./UZPK2498](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./UZPK2498)

Annotatsiya. *Ma'lumki, "Boburnoma" joy nomlarini o'rganishda tarixiy manbaa sifatiga muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda yuzlab geografik joy nomlarning berilishi nafaqat toponimika, balki etnonimika uchun ham ahamiyatlidir. Asarda nom bo'yicha berilgan toponimlar, oykonimlar, polisonimlar, gidronimlar, agronimlar, oronimlar ham lingvistika uchun, geografik jihatdan bir hudud va shaharning boshqa bir viloyat tarkibiga kirish yoki kirmasligi bo'yicha geografiya fani uchun qimmatlidir.*

Kalit so'zlar: *toponim, oykonim, gidronim, polisonim, agronimlar, oronimlar, aholi, lazgi, lashkar.*

Annotation. *In particular, "Babur-name" is considered as a historical source for the creation of the Zhytomyr Icon of the Mother of God. The assignment of geographical numbers in names may be related to toponymy, or it may be related to ethnonymy. The paper presents toponyms, oikonoms, polysonyms, hydronyms, agronyms, oronyms for linguistics, geography, geography and geographical science.*

Keywords: *toponym, oykonim, hydronym, polysonym, agronyms, oronyms, population, lazgi, army.*

Joy nomlarini o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ana shunday qimmatli manbalardan biridir. Geograf H.Hasanovning yozishicha, “Boburnoma”da bir minggacha geografik nom – mamlakat, shahar, qishloq, qal’a, dasht, tog‘, dovon, dara, daryo, ko‘prik, kechuv, ko‘l, chashma, bog‘, yaylov, o‘tloq kabi joylarning nomlari tilga olinadi [Hasanov, 1996:29]. Bularga Ko‘li Malik, Kofiriston, Yassi Kechit, Doroi Xush, Yeryayloq kabi nomlarning jang maydonlari sifatida berilishini ham qo‘shish mumkin – Bobur tomonidan jang maydonlari ham nomlangan. Bu ma’noda faqat Amudaryo va Sirdaryoning har ikki

sohillaridagina joylashgan hududlarning toponimikasiga doir yuzlab nomlar berilgan. Bu nomlarni alohida-alohida o'rganish toponimikaning barcha sohalari uchun ham, etnonimika uchun ham ahamiyatlidir.

“Boburnoma”da polisonimlar – shahar nomlari bilan bog'liq bo'lgan joylar sifatida Andijon, Toshkent, Xo'jand, Samarqand, Buxoro nomlar keltiriladiki, bu nomlar hozir ham istemolda hech bir o'zgarishsiz qo'llanadi. Bular haqidagi ma'lumotlar hozirgi hayot tarzi bilan qiyosiy o'rganilishi ijtimoiyot uchun katta ahamiyatga ega.

Boburning o'ziga xos ensiklopedik asarida oykonimlar tarkibigi kiruvchi So'g'd, Qorategin, Farg'ona kabi aholi yashash hududlari viloyat, deb sifatlanadi. Borin, Sag'riychi kabi hududlar tuman, Uyg'ur Majam, Rabotak, Yoryayloq hududlari mavze, Tangob, Sapon, Mayan qishloq, Oqqanchig'ay, Olatog', Qubo, Oqsuv, Burunduq, Pop kabi o'nlab hududlar kent sifatida ajratib ko'rsatiladi va ularning o'ziga xos geografik jihatlari hamda yashash tarzlari haqida ma'lumotlar beriladi. Masalan, Xo'jand, O'ratepa nomlari viloyat sifatida tavsiflanar ekan, “O'ratepaning asl nomini kitoblarda Ushrushnadir, Ushrush deb ham yozadilar. Xo'jandni ba'zilar Farg'onaga kirmaydi, deydi” [Bobur, 2012:33].

Ko'rinadiki, bu ma'lumot nom bo'yicha lingvistika uchun, geografik jihatdan bir hudud va shaharning boshqa bir viloyat tarkibiga kirish yoki kirmasligi bo'yicha geografiya fani uchun qimmatlidir.

Qorako'l viloyati tumanlari haqida Bobur shunday yozadi: “Yana Qorako'l viloyatidir. Barchasidan ko'ra suv quyisidadir. Buxorodan yetti yig'och g'arbi-shimoldadir. Yaxshi tumanlari bor. Shu jumladan, So'g'd tumani va So'g'dga tutash tumanlar. Boshi Yoryayloq, oyog'i Buxoro, bir yig'och yo'l yo'qki, obod qishloqlari bo'lmasin. Behad mashhur tumanlarki, Temurbek: “Mening bir bog'im borki, uzunligi o'ttiz yig'ochdir” deganda shu tumanlarni ko'zda tutgan. Yana Shovdor tumanidir. Shahar va mahallalarga tutash” [Bobur, 2012:58].

Ko'rinadiki, bu tavsiyalarda joylarning geografiyasi, tabiiy resurslari, xo'jaligi haqida aniq ma'lumotlar berilgan. Yanada ahamiyatlisi shundaki, joylar tavsifanganda, qiyoslashga ham e'tibor qaratiladi. Shovdor tasvirining davomida shunday yoziladi: “Bir tarafi Samarqand bilan Shahrizabz orasidagi tog' bo'lib, kentlari aksar bu tog' etaklariga tushgan. Yana bir tarafi Qo'qon daryosidir, xushhavo va sersafo, suuvi mo'l, ne'mati arzon... Misr va Shomni ko'rgan jahongashtalar bundan chiroyli joy bor, deb aytmaydilar” [Bobur, 2012:58].

Asarda ko'pgina mavzelar qatorida Xo'jandga qaram mavzelardan biri sifatida Kandibodom tasviri beriladi. “Shahar deb bo'lmaydi-yu, ammo yaxshigina shaharchadir. Bodomi yaxshi bo'ladi. Bu jihatdan shu ism bilan nomlangan” [Bobur, 2012:30]. Bu tasvirdan ma'lum bo'ladiki, mavze shahar tipiga yaqinroq bo'lgan. Asarning ensiklopedik jihati shunda ko'rinadiki, ma'lumot qisqa bo'lishiga qaramay, aniq va to'ladi. Konibodom bodomi haqida gapirib, “Hurmuz va Hindistonga ko'proq shu yerning bodomi boradi” [Bobur,

2012:30]. deyilganda, hozirgi tushunchadan kelib chiqilsa, Konibodomning bodom eksperti nazarda tutiladi.

“Boburnoma”da Poshogar, Sapon, Mahan kabilar qishloq, Xubon, Saqo, Hisor kabi bir qator hududlar kentlar sifatida ajratib tavsiflanadi.

Asarda gidronimlar doirasiga kiruvchi ko'pgina geografik nomlar qayd etiladi. Sayxun, Chir-Chirchiq, Kamrud, Ko'hak – Zarafshon daryolari, Kamrud anxori ana shunday gidronimlardir. Bu doiralarga kechuvlarni ham qo'shish mumkin. Asarda Kilif, Chorjo'y kechuvlari kechik tarzida beriladi.

“Boburnoma”da oronimlar doirasiga kiruvchi ob'yektlar tizimida Baroko'h. Mevagul, Mascho, Siritog', Olg'u, Ko'hak kabi tog'lar nomlari keltiriladi. Ko'hak tepaligi, Konigil sayxonligi va bu joylardagi oqar suv, bog'lar tasvirlanadi. Agronimlar doirasida qaralishi va o'rganilishi mumkin bo'lgan nomlar sirasida Yakchirog' o'tog'i, Dahkat, Qo'lba yalangliklari, Bo'rka yaylovi, Zardak cho'li va boshqa shunday ob'yektlar tasvirlari beriladi.

“Boburnoma”da yo'llar haqidagi ma'lumotlar Hind yo'li, Bandi Solor, Chakrak yo'li nomlari bilan bog'liq holda beriladi. Jang maydonlari esa Yoryayloq, Ko'li Malik, Kofiriston, Yasal Kechit Darai Xush geografik nomlari bilan bog'lanadi.

“Boburnoma”ning mundarijasi haqida gapirilganda, uning tilshunoslik asari ekanligi ham ta'kidlanadi. Bu borada V.Rahmonov yozadi: “Bobur ism va laqablarning kelib chiqishiga doir ajoyib fikrlar bayon qiladi. Shulardan biri o'zining kichik tog'asi Sulton Ahmadxonning laqabi haqidadir (matn tadbili): “Sulton Mahmudxon kichigi Sulton Ahmadxon edi. U Olachaxon nomi bilan mashhurdir. “Olachaxon” ismining qo'yilishi sababida deydilarki, qalmoq va mo'g'ul tillarida “o'ldiruvchi”ni “olachi” derlar. Qalmoqlarni bir necha marotaba bosib, ko'p kishisini qirgani uchun Olachi deb ko'p aytilaverganligidan Olacha bo'lib ketgan” [Rahmonov, 2012:21].

Bu izoh fikr-mulohazalar yuritishga undaydi. Xorazmning mashhur “Lazgi”sida “qora ko'z” birikmasi bilan birgalikda “ola ko'z” (qora ko'z gal, gal, ola go'z gal, gal) birikmasi ham naqorat sifatida takrorlanib keladi. Shu o'rindagi “ola ko'z” “olachi ko'z” bilan, ya'ni o'ldiruvchi, yondiruvchi, kuydiruvchi ko'z tarzida bog'liq emasmikan, degan fikr keladi. Ehtimol, shundaydir, buni o'ylashga, o'rganishga chorlash bilan ham “Boburnoma” qimmatli tilshunoslik asaridir.

Yana bir tipologik hodisa “Bobur Samarqand shahridagi, – deb yozadi V.Rahmonov yuqoridagi maqolasida, – Laqlaqa masjidi atamasini ham quyidagicha jozibali ilmiy dalillaydi (matn tadbili): “Samarqand qal'asining ichida yana bir qadimiy imorat bor: masjidi Laqlaqa derlar. U gumbazning o'rtasida turib yerni tepsalar hamma yog'idan “laq-laq” tovushi chiqadi. G'aroyib holdir. Hech kim buning sirini bilmas” [Rahmonov, 2012:81].

Tilshunoslikka doir bir material jihatni keltirish lozim. Luhatlarda, xususan, o'zbek tilining izohli lug'atida “el” so'zining quyidagi ma'nolari izohlanadi.

“Boburnoma”, o‘z davrining boshqa manbalari qatori, so‘z semantik strukturasi kechadigan o‘zgarishlarni o‘rganish uchun ham qimmatlidir. Masalan, to‘qqiz yuz oltinchi (1500-1501) yil voqealari bayonida “el” so‘zining qo‘llanishi ko‘rsatadiki, bu so‘z “lashkar”, “qo‘shin” ma‘nolarini ifodalagan. “Bizga ko‘makka kelgan mo‘g‘ul lashkarlarining urushga toqati yo‘q edi. Urushmoqni qo‘yib, o‘zimizning elniyoq talab, otdan tushirishga kirishdilar... Ilganidan va keyindan bostirib kelindi. Bizning elni sarosimaga soldilar”. [Rahmonov, 2012:81]

“El” so‘zi har ikki qo‘llanishda ham “lashkar”, “qo‘shin” ma‘nolarida kelgan. Bu so‘z Alisher Navoiy tomonidan ham ayni “lashkar”, “qo‘shin” ma‘nolarida qo‘llangan. Alisher Navoiy asrlari tili uchun tuzilgan lug‘atda “el” so‘zi anglatadigan ma‘nolardan biri “asar”, “lashkar” deb izohlanadi. “Va podshoh necha qatla qolin el yiborib, daf qila olmadi”, ya‘ni podsho bir necha marta ko‘p askar yuborib ham daf qila olmadi.

Hozirgi zamon tilida bu so‘z “askar”, “lashkar”, “qo‘shin” ma‘nolarida qo‘llanmaydi va shuning uchun ham lug‘atlarda bu jihatdan izohlanmaydi. Lekin qirg‘iz yozuvchisi T.Qosimbekovning “Singan qilich” tarixi romanida “qo‘shin” ma‘nosida qo‘llangani kuzatiladi. “Bo‘sag‘adagi ikkala yigit Yusuf biy tashqariga chiqishi bilan ta‘zim qilib yo‘l berishdi... U vaqtincha damm olayotgan qo‘shinlarga o‘ziga xos vazminlik bilan ko‘z gurtirib, hali oldinda g‘oyat mashaqqatli yo‘l turganini xayolidan o‘tkazdi.

Karnay chainsin! – dedi Yusuf bosqlik bilan.

Ikki karnaychi joni boricha mahorat bilan g‘at-g‘utlaydi. Tog‘u toshlar karnay sadolaridan yangrab, el harakatga tushdi” [Qosimbekov, 1980:44].

Bu kichik parchada qo‘llangan “el” so‘zi “vaqtincha dam olayotgan qo‘shin”ni anglatadi – vaqtincha dam olayotgan qo‘shin endi karnay sadolari ostida harakatga tushdi.

“El” so‘zining “lashkar”, “askar”, “qo‘shin” ma‘nolari o‘zbek tili izohli lug‘atida berilmagan kabi qirg‘izcha-ruscha lug‘atda ham berilmagan.

Xullas, “Boburnoma” ko‘pgina fanlar uchun material beradigan manba hamdir.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик, учинчи том. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1984.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: “O‘qituvchi”, 2012.
3. Раҳмонов В. Шоҳ, адиб ва шоир – Заҳириддин Муҳаммад Бобур. В книге: “Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: “O‘qituvchi”, 2012.
4. Қосимбеков Т. Синган қилич. Тошкент – 1980.
5. Ҳасанов Ҳ. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1966.